

## **JAMIYAT SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYADA EKOLOGIK IDEALLARNING AHAMIYATI**

***Muratova Dildora Abdumanapovna***

*Renessans ta'lim universiteti*

*Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti, PhD*

**ANNOTATSIYA:** Maqolada jamiyat sotsiomadaniy transformatsiyada ekologik ideallarning ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda Jamiyat tarixi va alohida shaxs hayot faoliyatini ideallar bilan bog'liq holda o'rganish - ijtimoiy jarayonlarning insonparvarlik darajasini va sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlarning axloqiy ahamiyatini aniqlash imkonini beruvchi eng fundamental baholash va o'lchash usullari ochib berilgan.

***Kalit so'zlar*** Jamiyat tarixi, sotsiomadaniy transformatsiya, barqaror rivojlanish, tabiat muhofazasi, teleologik va aksiologik, milliy an'analar, global ekologiya, atrof-muhit, ekologik ta'li.

Jamiyat tarixi va alohida shaxs hayot faoliyatini ideallar bilan bog'liq holda o'rganish - ijtimoiy jarayonlarning insonparvarlik darajasini va sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlarning axloqiy ahamiyatini aniqlash imkonini beruvchi eng fundamental baholash va o'lchash usullaridan biridir. Bu yondashuv orqali biz jamiyatning rivojlanish yo'nalishlarini va insoniyat oldida turgan maqsadlarning mohiyatini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Aynan shu sababli ideallar masalasi ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan va bugungi kunda ham jalb etmoqda. Bu e'tibor tasodifiy emas, chunki ideallar jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi va ijtimoiy rivojlanishning yo'nalishlarini belgilab beradi. Ideallar nafaqat jamiyat taraqqiyotining mezoni, balki inson ma'naviy kamolotining ham muhim omili hisoblanadi.

Ideallar muammosi u yoki bu tarzda, bevosita yoki boshqa masalalar tahlili bilan bog'liq holda ko'plab mashhur xorijiy olimlar tomonidan ham, mahalliy mutaxassislar tomonidan ham o'rganib kelingan. Bu tadqiqotlar turli davrlarda va turli ilmiy maktablar doirasida olib borilgan bo'lib, ular ideallarning turli jihatlarini yoritishga qaratilgan. Xorijiy va mahalliy olimlarning bu boradagi izlanishlari bir-birini to'ldiradi va boyitadi, bu esa ideallar haqidagi ilmiy tasavvurlarning yanada teranlashuviga olib keladi.

Ideallarni o'rganish orqali biz nafaqat jamiyatning bugungi holatini baholash, balki uning kelajak taraqqiyot yo'nalishlarini ham belgilab olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Bu jarayonda ideallarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, madaniy, tarixiy omillarni har tomonlama tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ideallarning jamiyat hayotidagi amaliy ahamiyati, ularning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri masalalari ham chuqur o'rganishni talab etadi.

Ko'pchilik olimlarning fikricha, ideallar - bu inson va jamiyat intilayotgan oliy maqsadlardir<sup>1</sup>. Ba'zi mualliflar ideallarni maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning umumiy shakllari deb hisoblaydilar va "ideal kategoriyasi chuqur ijtimoiy ahamiyatga ega"<sup>2</sup> deb ta'kidlaydilar. Boshqalar esa uning subyektivligini qayd etib, "ideal subyektning yakuniy, umumiy, eng muhim maqsadi sifatida namoyon bo'ladi"<sup>3</sup> deb yozadilar. Uchinchi guruh olimlari ideallarni ongning dialektik-ikki yoqlama, ijtimoiy-individual tabiatining aksi sifatida ko'rib, "ideallarda individual va jamoaviy faoliyatning yakuniy maqsadlari aks etishini"<sup>4</sup> qayd etadilar. To'rtinchi guruh vakillari idealning muhim

---

<sup>1</sup> Masalan: Ницше F. Нравственного идеалы нашего времени. – Москва, 1893. Fromm E. Анатомия человеческого декуртивности. – Москва: Наука. 1994. – 447 с.; Выйетсов G.P. Аксиология культуры. – СПб., 1996; Греchanый V.V. Категория сennosti/Философский и лингва-семантический анализ. – СПб., 1993; Kagan M.S. Философская теория сennosti. – СПб., 1997; Maksimov A.N Философия сennostey. – M., 1997; Smirnov P.I. Общечеловеческие сennosti как результат массовых деуствий lyudey. – Grodno, 1992.

<sup>2</sup> Ilyenkov E.V. Ideal / Философская энциклопедия. T.2. – M., 1962. S. 195.

<sup>3</sup> Yatsenko A.I. Selepolaganiye i idealy. – Kiyev, 1977. S. 171

<sup>4</sup> Drobniskiy O.G. Problemy нравственности. – M., 1977. S. 29

xususiyati sifatida “teleologik va aksiologik tomonlarning birligi”ni<sup>5</sup> ko‘rsatadilar. Beshinchi guruh olimlari esa ideallarni qadriyatlar tizimining organik elementi sifatida ko‘rib, uni “zaruriy, lozim va istalgan maqsad”<sup>6</sup> sifatida tavsiflaydilar.

Tadqiqotchi D.Shokirovning fikricha “Ideallar - shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongda bor, lekin har doim ham amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo‘lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo‘lib, o‘sha ideallar obyekt bilan shaxs imkoniyatlari o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin”<sup>7</sup>.

Tadqiqotchi A.Ravshanov esa: “Har bir jamiyatda davriy va umumiy ma’naviy ideallar yuzaga keladi. Davriy ma’naviy ideallar bir jamiyatning ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarsa, umumiy ma’naviy ideallar esa barcha jamiyatga xos bo‘ladi”<sup>8</sup>.

Demak, mifologik tafakkur davrida shakllangan dastlabki ideallar insoniyat ma’naviy madaniyatining rivojlanishida muhim bosqich bo‘lgan. Ular orqali odamlar nafaqat tabiat hodisalarini tushunishga intilganlar, balki ijtimoiy hayotning ma’naviy asoslarini ham yaratganlar.

Buyuk mutafakkir Farobiy asarlarida borliqda inson ketegriyasi alohida o‘rin tutada. “Al-Farobiyning fikriga ko‘ra, universallik yaxlitlikdir, unga hamma narsa oqilona intiladi va shu nuqtayi nazardan ijtimoiy ontologiya modelini qurish “borliq yaxlitligi”ga da’vatlarni eshitgan fazilatli inson tabiatiga eng mos keladi”<sup>9</sup>. Darhaqiqat, Farobiy o‘zining falsafiy ta’limotida universallik va yaxlitlik tushunchalariga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, koinotdagi barcha narsalar, hodisalar va jarayonlar bir butun tizimni tashkil etadi va ular o‘rtasida doimiy uyg‘unlik, mutanosiblik mavjud. Bu yaxlitlikka intilish barcha mavjudotlarning tabiiy xususiyati bo‘lib, u oqilona asosga ega. Inson ham shu yaxlitlikning bir qismi sifatida unga intiladi va faqat shu yo‘l bilan

---

<sup>5</sup> Davidovich V.Ye. Teoriya ideala. - Rostov-na-Donu, 1983. S. 34

<sup>6</sup> Vyjletsov G.P. Aksiologiya kulture. - SPb., 1996. S. 58

<sup>7</sup> Shokirov D. Shaxs dunyoqarashi va e’tiqodining o‘zgaruvchanlik xususiyatlari// Central Asian academic journal of scientific research. 2022/Volume 2/Issue 6/337-342 B.

<sup>8</sup> Ravshanov A.S. Barkamol avlodni tarbiyalashda ma’naviyat va milliy qadriyatlarining o‘rni// Falsafa va huquq. 2023/3. 187-191 bb.

<sup>9</sup> Ramatov J.S., Hasanov M. Abu Nasr Farobiyning falsafiy qarashlari, xususan, inson ma’naviy kamoloti haqidagi ilmiy-falsafiy ta’limoti.// Academic Research in Educational Sciences. 2022. June. Volume 3. 1170-1179 b.

o'z mohiyatini to'liq namoyon eta oladi. Shu bois, jamiyatni tashkil etish va boshqarishda ham yaxlitlik tamoyiliga tayanish lozim. Bunday yondashuv ayniqsa fozil insonga xos bo'lib, u borliqning yaxlitligini chuqur anglaydi va o'z faoliyatini shu asosda quradi. Forobiyning bu qarashlari fozil jamiyat haqidagi ta'limotining asosini tashkil etadi va ijtimoiy ideallarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rta asrlarning mutafakkiri Grigoriy Nisskiy va boshqa faylasuflar insonning tabiatdagi bu alohida o'rnini nazariy jihatdan asoslab berganlar. Ularning ta'limotiga ko'ra, "inson ikki olam – ruhiy va moddiy dunyoning tutashgan nuqtasida turadi. Uning aqli va erkin irodasi ilohiy mohiyatga ega bo'lsa, tanasi uni moddiy dunyo bilan bog'laydi"<sup>10</sup>. Bu qarash insonning tabiatdan ma'lum darajada ajralganligini ko'rsatadi.

O'rta asrlar davri insoniyat tarixini tushunish va talqin qilishga o'zining chuqur ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrda tarix tushunchasi diniy qarashlar bilan chambarchas bog'lanib, "muqaddas tarix" tusini oldi. Ya'ni, barcha tarixiy voqea-hodisalar ilohiy iroda natijasi sifatida talqin qilindi. Shunga qaramasdan, o'rta asr falsafasida ijtimoiy ideal haqidagi tasavvurlar yanada chuqurlashdi va rivojlandi. Bu borada arman faylasufi Grigor Tatevatsining qarashlari alohida e'tibor qaratishga loyiq. U jamiyatni tirik organizmga o'xshatib, o'ziga xos nazariyani ilgari surdi. Tatevatsi ta'limotiga ko'ra, xuddi tirik organizmdagi har bir a'zo ma'lum bir vazifani bajargani kabi, jamiyatda ham har bir inson o'zining aniq belgilangan vazifasini bajarishi lozim. Faylasufning fikricha, "jamiyatdagi uyg'unlik va barqarorlik barcha a'zolarining o'z vazifalarini to'g'ri bajarishi va o'zaro muvofiq harakat qilishiga bog'liq. Xuddi inson tanasidagi barcha a'zolar birgalikda ishlagandagina sog'lom hayot ta'minlanganidek, jamiyat ham faqat barcha a'zolarining hamjihatligi va hamkorligi tufayli ravnaq topadi"<sup>11</sup>.

Va nihoyat, ideal madaniyatning yaxlitligi va inson ruhiyatining barqarorligini ta'minlovchi psixologik hodisa sifatida ham qaraladi. Bu ma'noda u shaxs va jamiyat

---

<sup>10</sup> Мартынов А. В. Учение св. Григория еп. Нисского о природе человека. (Опыт исследования в области христианской философии IV века). М., 1886. [https://azbyka.ru/otechnik/Aleksandr\\_Martynov/uchenie-sv-grigoriya-ep-nisskogo-o-prirode-cheloveka-opyt-issledovaniya-v-oblasti-hristianskoj-filosofii-4-veka/](https://azbyka.ru/otechnik/Aleksandr_Martynov/uchenie-sv-grigoriya-ep-nisskogo-o-prirode-cheloveka-opyt-issledovaniya-v-oblasti-hristianskoj-filosofii-4-veka/)

<sup>11</sup> Grigor Tatevatsi / Filosofskaya ensiklopediya. - M.: Gos. izd-vo "Sov. ensiklopediya", 1960. S.404.

o'rtasidagi muvozanatni saqlashga yordam beradi, insonning ichki dunyosini boyitadi va uning ma'naviy kamolotiga ko'maklashadi. Ideal inson psixikasining muhim tarkibiy qismi sifatida uning dunyoqarashini shakllantiradi va hayotiy maqsadlarini belgilashga yordam beradi.

Shunday qilib, ideal tushunchasi ko'p qirrali va murakkab hodisa bo'lib, u jamiyat va inson hayotining turli jabhalarida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ideallarning mavjudligi insoniyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri hisoblanadi, chunki ular jamiyat va shaxsning rivojlanishiga doimiy turtki berib turadi, yangi marralarni egallashga undaydi va ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi.

Ideallarning turli ma'nolarini chuqur o'rganar ekanmiz, ularning barchasini ikki asosiy yo'nalishga birlashtirish mumkin. Bu yo'nalishlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, inson tafakkuri va jamiyat rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Birinchi yo'nalish idealni mukammallik timsoli sifatida tushunishga asoslanadi. Bunda ideal voqelikdagi barcha ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan mukammal holat sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, adolatli jamiyat g'oyasi, komil inson tushunchasi yoki mukammal dunyo tasavvuri shular jumlasidandir. Ikkinchi yo'nalish esa idealni insoniyat rivojlanishining maqsadi sifatida talqin etadi. Bu talqinda ideal jahon tarixining umumiy yo'nalishini ko'rsatuvchi va uni baholash mezonini bo'lib xizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Masalan: Ницше Ф. Нравственного идеала нашего времени. – Москва, 1893.
2. Fromm E. Анатомија челоуеcheskoy dekrktivnosti. – Москва: Nauka. 1994.
3. Ilyenkov E.V. Ideal / Filosofskaya ensiklopediya. T.2. - M., 1962. S. 195.
4. Yatsenko A.I. Selepolaganiye i ideala. - Kiyev, 1977. S. 171
5. Drobniskiy O.G. Problemy npravstvennosti. - M., 1977. S. 29
6. Davidovich V.Ye. Teoriya ideala. - Rostov-na-Donu, 1983. S. 34
7. Vyjletsov G.P. Aksiologiya kulturny. - SPb., 1996. S. 58

7. Ramatov J.S., Hasanov M. Abu Nasr Forobiyning falsafiy qarashlari, xususan, inson ma'naviy kamoloti haqidagi ilmiy-falsafiy ta'limoti.// Academic Research in Educational Sciences. 2022. June. Volume 3. 1170-1179 b.